



SPORTCHILAR SHAXSIY XUSUSIYATLARINI SHAKLLANISHIDA MOTIVATSIYANING TA’SIRI

Baxromov O.

JDPI sport turlarini o‘qitish metodikasi kafedrası PhD v/b.dotsent

Tayanch so‘zlar: sportchi, motivatsiya, rol, motiv, muvaffaqiyat.

Ключевые слова: спортсмен, мотивация, роль, мотив, успех.

Key words: athlete, motivation, role, motive, success.

Motivatsiyani o‘rganish jarayonida bir qancha psixologik savollarga duch kelamiz, bu savollarga javob berishni qiyinligi shundaki, zamonaviy umumiy psixologiyada ham, sport psixologiyasida ham inson harakatlarning motivatsiyasi muammosiga hamon aniq bir yechim topilmagan.

Motivatsiyani o‘rganishda eng samarali yondashuv Madsenning motivatsiyasi sintez konsepsiyasi bo‘lib, unda yigirmata eng ahamiyatli zamonaviy motivatsiya nazariyasini taqqoslab o‘rganishga qaratilgan va ularni tahlil qilishga harakat qilingan.

Yosh futbolchilarni muvaffaqiyatga intilishida motivatsiyani ta’sirini o‘rganish jarayonida biz Dj.Atkinssonning yutuqqa erishish motivatsiyasi nazariyasi asosida A.Mexrabian tomonidan ishlab chiqilgan so‘rovnomasidan foydalandik. Bu metodika ko‘plab mamlakatlarda ommaviylashgan va ikkita o‘zaro bog‘langan, biroq motivatsion intilishning qarama-qarshi yo‘nalganligini, ya’ni yutuqqa erishishga harakat qilish va omadsizlikdan qochish motivlarini differensial baholash uchun foydalaniladi. Motivatsion intilishning bu ikkala yo‘nalishini bog‘liqligining insonda aks etishi esa shaxs tipini aniqlab beradi va shu asosda uning xulq-atvorini ham belgilab beradi. Mazkur masala yuzasidan o‘tkazilgan so‘rovnomaning tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Yutuqqa bo‘lgan motivatsiya so‘rovnoma bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari

t/r	Respondent	Motivatsiya	
		Yutuqqa erishishga harakat qilish	Omadsizlikdan qochish
1	Jizzax n= 22	184,0	92,1
2	Samarqand n=28	174,3	89,7
3	Qarshi n=23	176,5	90,5

Tadqiqot ishlarida Jizzax, Samarqand, Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari ishtirok etishdi. Tadqiqotda yosh futbolchilarni muvaffaqiyatga intilishida motivatsiyaning ta'siri o'rganildi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari motivatsiyaning bir-biriga zid bo'lgan ikki yo'nalishini, ya'ni yutuqqa erishishga harakat qilish motivi hamda omadsizlikdan qochish motivi darajalarini belgilab berdi.

Yutuqqa erishishga harakat qilish motivi Jizax futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarida 184,0 ball ko'rsatkichni ko'rsatgan bo'lsa, Samarqand futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarida 174,3 ball, Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarida esa 176,5 ball ko'rsatkichga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin (4-jadvalga qarang). Tadqiqot natijalari asosida aytishimiz mumkinki, har uchala futbol akademiya (Jizzax, Samarqand, Qarshi) tarbiyalanuvchilarda garchi ularning o'rtacha ballarida kichik farq bo'lsada, mazkur motiv yetakchi yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Yutuqqa erishishga harakat qilish motivi bo'yicha olingan natijalarga izoh berar ekanmiz, buni yosh futbolchilarning individual mahoratini oshirish, mashg'ulotlarga ijodiy yondoshish, o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, o'ziga bo'lgan ishonch, qat'iyatligi kabi xislatlari bilan bog'liqligini ta'kidlab o'tish joiz.

Omadsizlikdan qochish motivi bo'yicha olingan natijalari (Jizzax futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari 92,1 ball, Samarqand futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari 89,7 ball, Qarshi futbol akademiyasi tarbiya-lanuvchilari esa 90,5 ball) asosida aytish joizki, tadqiqot natijalari futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarining ko'rsatkichlari o'rtasida katta tafovut mavjud emas, bu esa shundan dalolat beradiki, Jizax, Samarqand, Qarshi futbol akademiyasida olib borilayotgan futbol mashg'ulotlari jarayoni yosh futbolchilarni omadsizlikka yo'naltiruvchi shaxs xislatlarini, ya'ni sovuqqon, jur'atsiz, qat'iyatsiz, bo'ysunuvchan, shoshqaloqlik kabi xislatlarini yuzaga chiqarmaslikka, uni boshqara olishiga ham alohida e'tibor berishlarini ta'kidlash joiz. Tadqiqotda



olingan natijalar 2.1. paragrafda T.Ellersning shaxsning omadsizlikka uchramaslik motivatsiyasi metodikasi asosida olingan tadqiqot natijalariga mos keladi. Tadqiqot jarayonida yosh futbolchilarning o'zlari tanlagan faoliyatida shaxs xislatlarini tarbiyalash omili ularning muvaffaqiyatga erishishida muhim ahamiyat kasb etishi namoyon bo'ldi.

Tadqiqotimizda sportchi shaxsining o'ziga xos jihatlarini shakllanishida motivatsiyaning ta'sirini o'rganishni maqsad qilib qo'ydik. Buning uchun biz B.Bassanning «Shaxsning yo'nalganligini aniqlash» metodikasidan foydalandik. Ushbu metodika shaxsning yo'nalganlik ko'rsatkichi sifatida insonning asosiy hayotiy yo'nalganligini o'rganish maqsadida qo'llaniladi.

Tadqiqot ishida biz futbol mashg'ulotlari bilan shug'ullanayotgan yosh futbolchilar shaxsning o'ziga xos jihatlarini shakllanishida motivatsiya-ning ta'sirini o'rganishga harakat qildik. Buni o'rganishda biz A.G.Kovalevning shaxs tuzilishi borasidagi fikrlarini inobatga olgan holda tadqiqot ishini olib bordik. A.G.Kovalevni fikriga ko'ra shaxs tuzilishi uning yo'nalganlik, qobiliyati, xarakter va o'zini-o'zi boshqarish komponentlaridan iborat. Uning fikricha, shaxsning yo'nalganligi yoki insonning real voqelikka munosabati komponenti sportda ko'pincha yuqori yutuqqa erishishi motivatsiyasi bilan belgilanadi. Sportda haddan ortiq jismoniy kuchga zo'r berish, kuchli psixik keskinlik holati kechinmasi raqibini yengishga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltiradi, eng asosiysi, yuqori sport natijasini ko'rsatish ehtiyojini qondirishga harakat qiladi. Shuning uchun ham sportchilarda o'z ustida ishlash, o'z mahoratini oshirishga bo'lgan ehtiyoj kuchli bo'ladi. Bu esa sportda falsafiy jihatdan sub'ekt va ob'ektning birligini ko'rsatadi.

Tadqiqot ishimizda Jizzax, Samarqand va Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari ishtirok etishdi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

5-jadval

B.Bassanning shaxs yo'nalganligini aniqlash metodikasi bo'yicha tadqiqot natijalari

t/r	Shaxs yo'nalganligi xususiyatlari	Respondentlar		
		Jizzax n=22	Samarqand n=28	Qarshi n=23
1	O'ziga	15,7	13,7	12,5
2	Muloqotga	14,0	10,2	18,9
3	Faoliyatga	18,1	15,3	14,6

5- jadvalda yosh futbolchilarning shaxs yo'nalganligining 3 ta bazaviy turlarini shakllanganligining tadqiqiy natijalari keltirilgan.

Shaxsning o'ziga yo'nalganligi bo'yicha tadqiqot natijalari asosida quyidagi fikrlarni bildirishimiz mumkin.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari yosh futbolchilarning o'ziga yo'nalganlik ko'rsatkichlari bo'yicha Jizzax futbol akademiyasi tarbiya-lanuvchilarida 15,7 ball, Samarqand futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarida 13,7 ball, Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarida esa 12,5 ballni tashkil qildi. Olingan tadqiqot natijalari asosida aytish joizki, Jizzax futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarida Samarqand va Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilariga nisbatan ko'rsatkichlari biroz yuqori ekan. Bu shundan dalolat beradiki, Jizzax futbol akademiyasi yosh futbolchilarida o'ziga yo'nalganlik xususiyati, ya'ni ish va hamkorlikka bog'liq bo'lmagan holatda to'g'ridan-to'g'ri rag'batga va qoniqishga bo'lgan yo'nalganlik, ma'lum bir maqomga erishishda tajovuzkorlik, hukmronlik, raqobatga moyillik, jizzakilik, xavotirlilik, introvertlik kabi xislatlar Samarqand va Qarshi futbol akademiyasi yosh futbolchilarining shu xislatlar ko'rsatkichidan nisbatan o'rtadan yuqori darajani ko'rsatdi. Bu xislatlarning yuqori darajasi ularda mashg'ulotlar va sport musobaqalari davrida ularning o'zaro hamkorligida, bir-biriga munosabatida salbiy ta'sir etishi bilan xarakterlanadi. Bu esa o'z navbatida yosh futbolchilarning jamoa sifatida muvaffaqiyatga erishishida ijobiy ta'sir ko'rsatishiga umid qilib bo'lmaydi, bu xislatlar Samarqand va Qarshi futbol akademiyasi yosh futbolchilarida o'rtacha va o'rtadan past natijani ko'rsatdi (Samarqand 13,7; Qarshi 12,5 ball), bu holat Samarqand va Qarshi futbol akademiyasi yosh futbolchilarida o'ziga yo'nalganlik ijobiy jihatdan namoyon bo'ldi, buni olingan natijalar ham ko'rsatib turibdi. Bundan shunday hulosa qilsa ham bo'ladiki, Samarqand va Qarshi futbol akademiyasida tarbiyalanuvchi yosh futbolchilarda o'ziga yo'nalganlik xislatlarining shakllanishi ularning motivatsiyasi bilan bog'liq holda mutanosib tarzda shakllanganligini, bu esa ularda mashg'ulotlarni ijobiy tashkil etilayotganligidan dalolat beradi.

Yosh futbolchilarning muloqotga yo'nalganlik xususiyatlari bo'yicha olingan tadqiqot natijalari Qarshi (18,9 ball) futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarida Samarqand (10,2 ball) va Jizzax (14,0 ball) futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarining natijalariga nisbatan yuqori natijani ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari asosida aytish mumkinki, Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarda muloqotga yo'nalganlik – ya'ni, har qanday sharoitda atrofdegilar, jamoadagi o'rtoqlari bilan muloqotda bo'lish, hamkorlikka intilish, oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish va boshqalarga, jamoadagi sheriklariga sidqidildan yordam berish evaziga ijtimoiy qo'llab quvvatlashga, guruhga bog'langanlik, odamlar bilan hissiy munosabatlar va ular bilan bog'lanib qolishga yo'nalganlik xislatlari Samarqand va Jizzax futbol akademiyasi yosh futbolchilariga qaraganda nisbatan yuqori darajada shakllanganligini ko'rsatdi. Bunday natija Qarshi futbol akademiyasi yosh futbolchilarining mashg'ulot va sport musobaqalari faoliyatida yaxshi natijalarga



erishishlarida ijobiy ta'sir ko'rsatishidan dalolat beradi. Qarshi futbol akademiyasi murabbiylari bilan o'tkazilgan suhbat davomida ham yuqoridagi fikrlar o'z tasdig'ini topdi. Qarshi futbol akademiyasining yosh guruhleri futbolchilari o'z yosh guruhlarida bir necha yillardan beri Respublika musobaqalarida yuqori natijalarni ko'rsatib kelayotgani ham fikrimizga yaqqol dalil bo'ladi.

Shaxsning muloqotga yo'nalganlik xususiyatlari bo'yicha Samarqand futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari past ko'rsatkich natijani ko'rsatdi (10,2 ball). Bu holat ularda bu borada olib borilayotgan tadbirlarning samaradorligining past ekanligidan, yosh futbolchilar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yetarli darajada olib borish lozimligini ko'rsatadi. Murabbiylar bilan o'tkazilgan suhbat jarayoni ham buni asoslab berdi.

Futbol akademiyasi yosh futbolchilarining faoliyatga yo'nalganlik bo'yicha tadqiqot natijalari Jizzax futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarida (18,1 ball), Samarqand futbol akademiyasi (15,3 ball), Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari (14,6 ball) ko'rsatkichlarga nisbatan yuqori natijani ko'rsatmoqda. Faoliyatga yo'nalganlik xususiyati bo'yicha olingan tadqiqot natijasi asosida aytish joizki, Jizzax futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari Samarqand va Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilariga nisbatan faoliyatga yo'nalganlik, ya'ni faoliyat borasida yuzaga keladigan muammolarni (texnik va taktik) yechishga qiziqish, faoliyatini imkon darajasida yaxshi bajarish, faoliyat jarayonida hamkorlikka intilish, o'z fikrini umumiy maqsadga erishishda himoya qila olish kabi xususiyatlar yaqqol namoyon bo'lganini ko'rish mumkin. Bu holatni biz quyidagicha izohlashimiz mumkin. Jizzax futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari futbol mashg'uloti va musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida ko'proq futbol mashg'ulotining texnik-taktik usullarini yaxshi egallashga harakat qilishlari, musobaqalarda yaxshi natijalarga erishishga harakat qilishlarini ko'rish mumkin. Biroq, ularning o'ziga yo'nalganlik xislat-larining yuqori ko'rsatkichi (15,7 ball), ya'ni har bir tarbiyalanuvchining «Men» va ularning o'zaro muloqotga yo'nalganlik xislatining past ko'rsatkichi (14,0 ball) faoliyatga yo'nalganlik xislati (18,1 ball) qanchalik yuqori bo'lganda ham muvaffaqiyatga erishishlariga ijobiy ta'siri kam ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bunday holatni Samarqand futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarining natijalarida ko'rishimiz mumkin. Qarshi futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarining ushbu xislat bo'yicha ko'rsatkichlari (14,6 ball) Jizzax va Samarqand futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarining ko'rsatkichlaridan past natijani ko'rsatgan bo'lsada, ular futbol musobaqalarida yuqori natijalar ko'rsatib, muvaffaqiyatga erishib kelmoqdalar, buni biz ulardagi o'ziga emas, balki jamoaga yo'nalganlik, o'zaro muloqot, o'zaro hamkorlik xislatlariga ko'proq e'tibor qaratishlari, mashg'ulot va musobaqa jarayonida texnik-taktik harakatlarining uyg'unligi bilan izohlashimiz mumkin.



Biz tadqiqitimizda yosh futbolchilarning shaxs yoʻnalganlik shkalalari oʻrtasidagi korrelyatsion aloqadorlik koʻrsatkichlarini oʻrgandik. Quyidagi jadvalda uning natijalari keltirilgan (6-jadval).

6-jadvaldan ham koʻrinib turibdiki, futbol akademiyasi yosh futbolchilarida oʻziga yoʻnalganlik xususiyati bilan muloqotga yoʻnalganlik xususiyati oʻrtasida manfiy bogʻlanish aniqlandi. ($t=-0,174$; $P< 0,001$).

6-jadval

Yosh futbolchilarning shaxs yoʻnalganligi shkalalari oʻrtasidagi korrelyatsiyalar koʻrsatkichlari

	Oʻziga	Muloqotga	Faoliyatga
Oʻziga	1	-0,174	0,441**
Muloqotga		1	-0,165
Faoliyatga			1

Oʻziga va faoliyatga yoʻnalganlik xususiyatlari orasidagi bogʻlanishlar esa musbat natijani koʻrsatdi ($t=0,441$ **; $P< 0,01$). Muloqotga yoʻnalganlik bilan faoliyatga yoʻnalganlik xususiyati orasida esa manfiy aloqadorlik koʻrsatkichi namoyon boʻldi ($t=-0,165$; $P< 0,001$). Bu olingan natijalar futbol mashgʻulotlari bilan shugʻullanish jarayonida yosh futbolchilarda shaxsning oʻziga xos jihatlari shakllanishiga, ularning futbol bilan shugʻullanish motivatsiyasiga ham taʼsir koʻrsatar ekan, bu holatni biz yuqorida ham taʼkidlab oʻtgan edik.

Adabiyotlar

1. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. -ЛГУ.:1969.
2. В.Гошек, М.Ванек, Б.Свобода. Успех как мотивационный фактор спортивной деятельности.//В кн.П.А.Рудика и др.“ Психологика и современный спорт”. - М.: ФИС,1973.
3. Джидарьян И.А. О месте потребностей, эмоций и чувств в мотивации личности.-М.: Наука,1974.
4. Ковалев А.Т. Психология личности. -М.:1965
5. Леонтьев А.Н.Потребность, мотивы, эмоции.-М.: МГУ,1971
6. Палайма Ю.Ю. Опыт исследования относительной силы мотива и формирование соревновательной установки спортсменов. // В кн. П.А.Рудика и др. “ Психология и современный спорт”. - М.: ФИС,1973.
- 7.Пилюян Р.А. Мотивация спортивной деятельности.-М.:ФИС, 1984.
- 8.Файзуллаева.А. Мотивационная саморегуляция личности.- Т.: Фан,1987.
9. Вахромов, Otabek. (2024). Восточные единоборства как средство формирования здорового образа жизни.

РЕЗИОМЕ

Mazkur yosh futbolchilarni muvaffaqiyatga intilishida motivatsiyaning roli, shaxsning oʻziga xos xususiyatlarini shakllanishida motivatsiyaning taʼsiri, yosh futbolchilarni futbl mashgʻulotlari bilan shugʻullanishlarini tashkil etish natijalari yoritilgan.

РЕЗИОМЕ

В данной статье рассматриваются результаты исследования о роли мотивации в успехе спортсменов.

SUMMARY

This article discusses the results of a study on the role of motivation in the success of athletes.